

MAQOM SAN’ATI VA UNING O‘ZBEK XALQI MADANIY HAYOTIDAGI O‘RNI

Shodiyeva Sevinch

Navoiy davlat universiteti

“Musiqqa ta’lim” yo’nalishi 3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar Bo‘ronov Fazliddin

Navoiy davlat universiteti

Kirish: Barchamizga ma’lumki, maqom san’ati – Markaziy Osiyodagi eng qadimiy va boy musiqiy an’analardan biri bo’lib, u o‘zbek xalqining musiqiy madaniyati, estetik qarashlari, milliy ruhiyati va tarixiy ongining ajralmas qismidir. Bu san’at turi asrlar davomida kamol topgan, o‘zining murakkab tuzilmasi, chuqur falsafiy mazmuni va ijodiy ifoda turlari bilan ajralib turadi. Maqomlar nafaqat musiqiy, balki adabiy, falsafiy va diniy-ma’naviy qatlamlarga ham boy bo’lib, xalqimizning dunyoqarashi va ma’naviy merosini ifodalovchi bebaho boylik desak mubolag’a emas.

Kalit so‘zlar: *Shashmaqom, Xorazm maqomlari, o‘zbek musiqasi, madaniy meros, hofizlik, xalq og‘zaki ijodi, tasavvuf musiqasi, estetik tarbiya, milliy ruh.*

Maqom san’ati o‘z ildizlarini qadimgi Sharq musiqiy madaniyatidan oladi. Bu san’at turi IX–X asrlarda shakllana boshlagan bo’lib, O‘rta Osiyodagi ko‘plab madaniy markazlarda – Buxoro, Samarqand, Xiva, Xorazm, Termiz kabi shaharlarda yuksak darajada rivojlangan. Maqomlarning rivojida mashhur musiqashunos olimlar – Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarning hissasi beqiyosdir. Ularning risolalarida maqomlar haqida ilmiy izohlar, musiqiy nazariyalar va amaliy tavsiyalar berilgan. Qolavesa, o‘zbek maqomlarida ashula va cholg‘u uyg‘unligi mujassam. O‘zbek maqom san’ati asosan ikki yirik maktabga bo‘linadi: Shashmaqom va Xorazm maqomlari. Shashmaqom Buxoro va Samarqand hududlarida shakllangan bo’lib, olti asosiy maqomni o‘z ichiga olishi barchamizga ma’lum va mashhurdir: *Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh va Iroq*. Har bir maqom bir necha qismlardan iborat bo’lib, ashula va cholg‘u qismlari uyg‘unlashgan tarzda ijro etiladi. Xorazm maqomlari esa o‘ziga xos uslubga

ega bo‘lib, unda asosan torli cholg‘ular, dutor, gijjak va rubobdan keng foydalaniladi. Xususan, maqomlarda matnlar odatda klassik adabiyot namunalaridan – Navoiy, Jomiy, Hofiz, Sa‘diy kabi shoirlarning g‘azallari asosida tanlanadi. Bu esa maqomlarni faqat musiqiy emas, balki adabiy va falsafiy meros sifatida ham qadrlashga asos yaratadi. Bundan tashqari, maqom san‘atining ma‘naviy va estetik ahamiyati ham muhim o‘rin tutadi.

Maqom san‘ati o‘zbek xalqining ma‘naviy dunyosini ifodalovchi eng chuqur san‘at turlaridan biridir. Maqomlar orqali inson qalbidagi tuyg‘ular – muhabbat, sog‘inch, tavba, iltijo, sabr-toqat, shukrona kabi holatlar musiqiy tilda ifodalanadi. Shu bilan birga, maqomlar insonni go‘zallikka, sabr-bardoshga, kamtarlikka undaydi. Ayniqsa, tasavvufiy ruh bilan sug‘orilgan maqomlar insonning ichki poklanishi va ma‘naviy kamolotga intilishida muhim vosita bo‘lgan.

Maqomning xalqimiz hayotidagi o‘rni

Maqom san‘ati tarix davomida xalq hayotining turli jabhalarida – to‘ylar, marosimlar, diniy bayramlar, suxbatlar va majlislarda keng qo‘llanilgan. Ayniqsa, baxshichilik va hofizlik an‘analarida maqomlar asosiy ohang sifatida xizmat qilgan. Bugungi kunda ham maqom san‘ati o‘zining dolzarbligini yo‘qotmagan. Ko‘plab musiqiy festivallar, xalqaro simpoziumlar va ijrochilik maktablari orqali ushbu san‘at keng targ‘ib qilinmoqda. Mustaqillik yillarida maqom san‘atini rivojlantirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. “Shashmaqom” 2003 yilda YUNESKO tomonidan Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi sifatida e‘tirof etildi. O‘zbekistonda maqom maktablari, maxsus akademiyalar, ansambllar tashkil etilib, yosh avlodga ushbu noyob san‘atni o‘rgatish ishlari davom etmoqda. Har yili tashkil etiladigan “Maqom san‘ati” xalqaro festivali ham ushbu san‘atni dunyo miqyosida targ‘ib etishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa:

Maqom san‘ati – bu o‘zbek xalqining ruhiy olami, tarixiy xotirasi, estetik didi va ma‘naviy kamolotining musiqiy ifodasidir. U nafaqat milliy madaniyatimizning ajralmas bo‘lagi, balki butun insoniyat tamaddunining bebaho merosidir. Bugungi kunda bu san‘atni asrab-avaylash, rivojlantirish va kelajak avlodga yetkazish barchamizning muqaddas burchimiz hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva, Z. (2017). O‘zbek musiqasi tarixi. Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi.
2. Ahmedov, A. (2015). Sharq musiqasi asoslari. Samarqand: Ma’naviyat.
3. Aliev, A. (2003). Shashmaqom: tarixi va zamonaviy talqini. Toshkent: San’at.
4. Jomiy, A.R. (1998). Risola-yi musiqiy. Toshkent: Sharq nashriyoti 63-65b.
5. Karimov, I. (1996). Ma’naviyat – g‘alaba qozonsa. Toshkent: O‘zbekiston.
6. Navoiy, A. (1980). G‘azallar devoni. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot.
7. Raxmatullayev, M. (2018). Maqom va xalq og‘zaki an’anasi. Buxoro: Ilm ziyo.
8. YUNESKO (2003). Shashmaqom: Nomoddiy madaniy meros ro‘yxati. Paris: UNESCO Publishing.